


Xitoyning mamlakatimizdagi elchisi O'zbekiston xalqini Mustaqillik kuni bilan tabrikladi



O'zbekistondagi xorijiy diplomatlar o'zbek xalqiga Vatanimiz Davlat Mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan samimiy tabrik va tilaklar yo'llamoqda.

Xitoy Xalq Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Szyan Yan xonim o'zi va Xitoy elchixonasi xodimlari nomidan O'zbekiston xalqiga videotabrik shaklida murojaat qildi. U davlatimiz taraqqiyotida izchil taraqqiyotga erishishga hissa qo'shadigan islohotlar siyosati muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

Xitoy diplomati mamlakatlarimiz o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik har tomonlama izchil mustahkamlanib, kengayib borayotganini ta'kidladi. Hamkorlik bundan keyin ham yangi amaliy ma'no bilan boyib borishiga ishonch bildirdi va O'zbekistonga tinchlik, taraqqiyot, xalqimizga baxt va farovonlik tiladi.

Manba